



DUNYO MAMLAKATLARNING O'ZIGA XOS QONUNLARI

Zokirov Shohruxbek Zohidjon o'g'li

Qo'qon Davlat Pedagogika Instituti

Tarix fakulteti 2-bosqich talabasi

Qo'qon sh.O'zbekiston

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6178141>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 05-Fevral 2022

Ma'qullandi: 10 - Fevral 2022

Chop etildi: 18 - Fevral 2022

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola Dunyo mamlakatlarning o'ziga xos qonunlari va qiziqarli jihatlari, jamiyat hayotida tutgan o'rni borasida tahlil qilish maqsadida yozilgan.

KALIT SO'ZLAR

Qonun, inson, jinoiy javobgarlik, taqiqlanadi, Kanada, AQSH, Germaniya, Gretsiya, Gurjiston, Italiya, Fransiya, BAA, Estoniya, Singapur, Samoa, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Norvegiya, Avstraliya, Bangladesh

Kirish: Tabiiyki inson yaralganidan beri o'z huquqiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida qonunlar ishlab chiqaradi. Bu esa o'z navbatida qonunchilik tizimini

yo'lga qo'yadi. Qonunchilik tizimi deganda, huquqining mazmuni va ishki tarkibiy tuzilishi mustahkamlovchi, rasmiylashtiruvchi, modfiylashtiruvchi normativ-huquqiy hujjatlar yig'indisi tushuniladi. Qonunchilik hujjatlari murakkab tarkibiy tuzilishga (strukturaga) ega. Ularni turli mezonlar asosida gorizonta, vertika va kompleks turdagi qonunchilik tizimi sifatida tasniflash mumkin. Turli mamlakatlarda qonunchilik tizimi o'ziga hosligi bilan ajralib turadi. Quyida ular bilan tanishishimiz mumkun.

Mulohaza va muhokamalar: Kanadaning Ontario shahrida ortiqcha shovqinlarni cheklovchi qonun mavjud. Unga ko'ra, har qanday baqiriq, qichqiriq, hushtak hamda qo'shiqni baland ovozda hirgoyi qilishga ruxsat berilmaydi. Bunday qoidabuzarliklarni sodir etuvchilarga jarima to'lash joriy etilgan.

1920 yilgacha Amerika Qo'shma Shtatlaridagi saylovlarda ayollar ovoz berish imkoniyatiga ega bo'lmagan. 1872 yilgi saylovlarda ayollar huquqlari himoyachisi Susan B. Antoni ovoz berishga harakat qiladi. Afsuski, bu qilmishi uchun u hibsga olinadi va 100 \$ jarimaga tortiladi.

Vashingtondagi Vilbur shahrida hayvonlarga e'tibor shu qadar kuchliki,



hattoki bu erda hunuk va badbashara otlarni otish noqonuniydir.

Utah shahrida qarindoshlar o'zaro turmush qurishga ruxsat berilgan. Bunda faqatgina ular 65 yoshdan oshgan bo'lishlari lozim.

Tennesi shtatida yakshanba kunlari bolalar litsenziyasiz o'yin o'ynashi mumkin emas. e'tiborlisi, ushbu shaharda ateist bo'lish ham qonunga hilof.

SHimoliy Dakato shtatida 4 iyulda hech kimni hibsga olish mumkin emas. Odatda bu kun shaharda "Five Finger Discount Day" bayrami nishonlanadi.

Oilaviy xiyonatlarni oldini olishga qaratilgan ajoyib qoidalar ham mavjud. Masalan, CHallisdagi Aydaho ko'chasida erkak begona ayol bilan yurishi ta'qiqlanadi.

Pensilvaniya shahrida ayol kishiga hurmat ko'rsatishning antiqa qoidasi joriy etilgan. YA'ni shaharda ayollarning kosmetik vositalaridan ruxsatsiz foydalanilsa qonuniy qonuniy jazo chorasi ko'riladi.

Bolalar salomatligiga doir qoidalar Minnesota shahrida mavjud. YA'ni, bu erda ota-onasidan qarovsiz qolgan 12 yoshgacha bolalar telefondan foydalanishiga cheklov o'rnatilgan.

Hayvonlarga g'amxo'rlikning o'ziga xos ko'rinishi Texas shtatining Vako shahrida banan po'choqlarini ko'chaga tashlash borasidagi cheklovlarda ko'rish mumkin. Bu cheklov ko'chada harakatlanayotgan otlarning sirg'alishi va lat eyishining oldini olish uchun joriy qilingan.

Gurjistonning Quyitman shahrida odamlardan tashqari hayvonlar ham amal qilishi majburiy bo'lgan qoidalar bor. Misol uchun shaharda tovuqlar yo'lni kesib o'tishi qat'iy ta'qiqlanadi.

Germaniyada avtomobilda harakatlanayotganda yonilg'i tugab qolishi ta'qiqlanadi. Bunday holat yuz bergan taqdirda avtomobil egasi jarimaga tortilishi mumkin. Ushbu ko'ngilsiz holatga duch kelmaslik maqsadida Germaniya fuqarolari avtomobil baklarini doimiy nazoratda saqlashadi.

Gretsiyaga sayohat qilmoqchi bo'lganlar o'zlari bilan baland poshnali oyoq kiyimlar olib bormaganliklari ma'qul. Boisi, mamlakatning ayrim tarixiy shaharlari, xususan tarixiy qadamjolarini baland poshnalar bilan tomosha qilish ta'qiqlanadi. Bu bilan madaniy ob'ektlarni muhofaza qilish nazarda tutilgan.

Italiyaning Florentsiya shahrida cherkov atroflarida tushlik qilish, tetiklantiruvchi ichimliklarni iste'mol qilish jinoyat hisoblanadi. Mazkur qoida jamoat joylarida ovqatlanishni ham ta'qiqlaydi. Bu shaharni ozoda saqlash uchun joriy etilgan qonun hisoblanadi.

Fransiyada o'lgan inson bilan turmush qurish qonun bilan taqiqlangan. Shuningdek cho'chqaga Napoleon deb ism qo'yish taqiqlanadi.

Birlashgan Arab Amirliklarida romantik holatlar, jumladan o'pishish, yonma yon turish, qo'llarni ushlab turish mumkin emas. Bunday qoidabuzar turistlar ommaviy tarzda hibsga olingan va qamoqqa tashlangan. Bu qonun mamlakatda oilaviy xiyonatlarni oldini olish uchun amal qiladi.

Estoniyada sigirlarning gazlar solig'i 2008-yilda kiritilgan. Muhitni ifloslantiruvchi yirik korxonalar bo'lmaganiga, «ekologik» soliqni sigir egalariga qo'yishga qaror qilindi. Estoniya deputatlarining aytishicha, sigirlar butun hayoti davomida atmosferaga



katta miqdorda metan chiqaradi. Qizig'i shundaki, itlar va mushuklardan soliq undirishmagan.

Singapurda, 2004-yildan beri saqichni import qilish va sotish ustidan qat'iy taqiq bor. Siz faqatgina tibbiy saqichni sotib olishingiz mumkin. Buni faqat dorixonalarda va qat'iy retsept bo'yicha sotib olasiz.

Samoadada erkak o'z ayoli tug'ilgan kunini unutib qo'yish qonun bilan taqiqlangan.

Yaponiyaning qonunlariga ko'ra o'z hayotini sug'urta qilgan erkak duelda o'lsa, sug'urta kompaniyasi uning vorislariga sug'urta tavoni to'lamaydi. Shuningdek bu yurtda pulga zarar yetkazish jarima yoki qamalishiga olib keladi.

Norvegiyada agar bir erkak boshqa erkakni mushtlashishga taklif qilsa raqib buni qabul qiladi yoki 4 ta bug'uni jarima sifatida beradi.

Bangladeshda esa imtihonda ko'chirgali yoki shpargalka ishlatganligi uchun 15 yosh va undan kattalar ozodlikdan mahrum qilinadi.

Avstraliya (Viktoriya shtati). O'z uyingiz elektr lampasini mustaqil ravishda almashtirishga ruxsat yo'q. Buchun sizga sertifikat kerak bo'ladi.

Buyuk Britaniya. Bu yerda xatga qirol yoki qirolicha rasmi tushirilgan markani teskari (oyog'ini osmondan qilib) yopishtirish vatanga xiyonat hisoblanadi.

Xulosa: Ko'rib turibmizki har bir mamlakat o'z an'analariga ega va bu qonunchiligida ham o'z aksini topgan. Har bir davlat o'z xalqi uchun kerakli qonunlarni ishlab chiqadi. Ushbu qonunlar jamiyat uchun foyda keltiradi va buni hech kim inkor etishga haqli emas zero qonun ishlab chiquvchi hokimiyat jamiyat tomonidan shakllantiradi. Eng muhimi qonun inson manfaatlariga hizmat qilishi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Davlat va huquq nazariyasi (Odilqoriyev X.T). Toshkent "Adolat" 2018
2. yuz.uz
3. fazo.tv
4. civil.uz